

ADABIYOTDA BADIY MAHORAT HAQIDA

(T.Qayıpbergenovning «Uyqısız túnler» povesti asosida)

Q.J.Sarsenbaev – *tayanch doktorant*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: adabiyot, mahorat, yozuvchi, povest, obraz, adabiyotshunos.

Ключевые слова: литература, мастерство, писатель, повесть, образ, литературовед.

Key words: literature, skill, writer, story, image, literary critic.

Adabiyot olamiga nazar solar ekanmiz undagi yozuvchi va shoirlar ijodi va mahorati insonni hayratda qoldiradi. Har bir yozuvchining asar yozishda oʻz uslubi mavjud. Qalam tebratgan har bir insonni mahoratli deb boʻlmaydi. Biz mahorat soʻzini adabiyot lugʻatidan izlar ekanmiz quyidagi tushunchaga koʻzimiz tushadi.

Qoraqalpoq adabiyotining yirik rivojiga oʻz hissasini qoʻshgan olim K.Mambetov mahoratga shunday izoh beradi. Mahorat - mahoratning asli izlanish. Izlanmagan inson talantli ham, mahoratli ham boʻla olmaydi. Demak, mahoratning choʻqqisiga yetishish uchun ham mehnat qilish zaʼrur. Odam bolasi onadan mahoratli boʻlib tugʻilmaydi. Masalan, gilamdoʻzlarni olaylik. Ularning har birining oʻziga yarasha talantlari bor. Lekin, oʻzlari tajribalari bilan ishlash natijasida mahoratini orttirgan. Yozuvchilar ham shunday. Oʻzlarining izlanishlari asosida mahorat yoʻllarini orttirib boradi. Yozuvchi mahorati uchun bilim va tajriba zaʼrur [4:13]. Adabiyotshunos olim Kamal Mambetovning bu fikri, adabiyotdagi buyuk siymolar, yaʼni yozuvchilarning badiiy mahoratli boʻlishi uchun albatta bilimli, tajribali boʻlishi shart ekanligidan dalolat beradi. Masalan, Yozuvchi T.Qayıpbergenov:

- *Bul qalay, qızım? Gúłzar degen qaraqalpaqlarda boladı. Al, sen oris qızı emespiñ? – dedi ol hayran qalıp. Mıyıq tartıp kúldim.*

- *Íras-aw, qızım, -dedi ol eziwinen kúlip. Onı bul kúkisi, solgın gúł birden ashılıp, ústine nurlı quyash túskenđey, jıyıq-jıyıq júzin jaynattı. – Házirgi zamanda at qoyıw tañ emes, qızım... Qońısımızdıń balaları Yuriy, Tamara... bolıp ketti. Meniń de Gúłzar degen qızım bar edi. Sol ushın sorap atırman, - dedi. [5:168]*

Yozuvchi bu satrlar bilan qoraqalpoq xalqqa nom berishda eʼtibor qaratishi kerak boʻlgan ayrim muammolar va ularning kelib chiqishini mahorat bilan tasvirlagan Asardagi bosh qaharmon Gulzar rus qizi boʻlishiga qaramay ismining qoraqalpoq qizlariga xos ekanligi kampir Xajarni hayron qoldiradi. Shunda Xajar kampir oʻz-oʻzidan kulib, albatta qoraqalpoqlarda ham ruslarning ismlari bor ekanligini aytadi va misol tariqasida Yuriy va Tamara ismlarini aytadi. Bu boʻlsa yozuvchining mahoratidan darak beradi.

Har bir xalqning yirik yozuvchilari boʻladi. Shu yozuvchilar asaridagi mahorat masalasini oʻrganib chiqish bu adabiyotchi olimlarning zimmasidagi vazifalardan hisoblanadi. Biz bu borada izlanish olib borganimizda quydagilarga koʻzimiz tushdi. Rus adabiyotining buyuk siymolaridan biri Anatoliy Fyodorovich Britikovning 1964-yildagi monografiyasi «Мастерство Михаила Шолохова», oʻzbek adabiyotining yirik namayondalaridan biri, oʻzbek adabiyotshunosi va munaqqidi Matyoqub Qoʻshjonovning 1962-yilgi «Hayot va mahorat», 1965-yili «Oybekning mahorati» bu asarlar dunyo adabiyotshunosligidagi mahorat masalasiga qaratilgan asosiy ilmiy ishlar hisoblanadi. Bu asarlar Dunyo adabiyotiga taniqli yozuvchilar M.Sholoxov va M.Oybekning asarlaridagi mahorat masalalariga qaratilgan dissertatsiya ishlari hisoblanadi.

Yozuvchi asari yaxshi chiqishi uchun albatta asar qahramonlari bilan birga yashashi shart. Shunda yozuvchi mahoratli hisoblanadi. Biz yozuvchi mahoratli boʻlsa uning asarlaridagi fikrlarni ilmiy analiz qilishimiz mumkin. Shu oʻrinda quyidagi fikr bizning xayolimizga keldi:

«Axir, sanʼatkorning barcha ishi haqiqiy, real, «ros-takam» hayotda emas, balki tasavur etilgan, mavjud boʻlmagan, ammo mavjud boʻlishi mumkin boʻlgan

hayotda yashaydi. Ana shu biz sanʼatkorlar uchun chinakam hayot hisoblanadi» [7:216], - deb yozadi Stanslavskiy.

Stanslavskiyning aktyorlar haqida yozgan fikri yozuvchilar uchun ham begona emas, aktyorlar bitta rolni ijro etib uning ishki olamida yashasa, yozuvchilar butun bir asar (doston, roman, povest)lardagi qahramonlarning barchasining hayotini yashaydi va his qiladi. Mana shuning oʻzi adabiy mahoratning ijobiy koʻrinishi.

Yozuvchi maʼlum gʻoya asosida toʻplagan alohida faktlari oʻzining shaxsiy tajribasi bilan boyitib, qalbidan oʻtkazib, koʻpchilikka xos qilib umumlashtiradi. Yaʼni, aniq gʻoyaga asoslanib, yozuvchi hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, toʻqiydi, umumlashtiradi va jonli, tabiiy va betakror goʻzal narsani yaratadi. Yaratgan asari (lavhasi) oʻquvchi koʻz oʻngida yaqqol namoyon boʻladi, kitobxon oʻy-xayollarini oʻziga tamoman band etadi [9:73].

Adabiyotshunos olim Umurov Hotamning yuqordagi fikri yuzasidan toʻxtaladigan boʻlsak, chindan ham adabiyot boʻstonida yozuvchilar dunyosining oʻzi bir falak, ular qaharmonlar bilan dardlashadi, birga baxt ulashadi shu bilan birga ular bilan yashaydi. Asarga baho berish bu kitob oʻquvchi zimmasidagi masuliyat.

«Yozuvchi mahorati, — deb yozadi, I.Sulton, aytmoqchi boʻlgan fikr, tasvirlanayotgan predmet va ruhiy holatni eng aniq va eng yorqin ifoda eta oladigan soʻz va iboralarni topa bilishdan iboratdir». Darhaqiqat, «yozuvchining dilida ajoyib tuygʻular mavj urib turgani bilan, ularni kitobxonning koʻngliga yetkazib beradigan haroratli, jozibali soʻzlar topilmasa, yozuvchining tili chinakam badiiy boʻlmasa, har qanday ijodiy reja ham hayf boʻlib ketadi» [6:128].

Buyuk adib Pirimqul Qodirovning bu fikriga qoʻshilgan holda yozuvchi chin dildan asar yozmas ekan yozgan mehnati hech qachon yaxshi chiqmaydi. Yozuvchi yangi asar ustida ishlar ekan albatta yaxshi reja tuzib olishi kerak boʻladi. Albatta, har qanday ish avvalida yangi reja turadi. P.Qodirov tili bilan aytganda yozuvchi mahoratli boʻlmasa u tuzgan eng yaxshi reja ham zoya ketadi. Buning uchun albatta eng avvalo, yozuvchining badiiy tili juda kuchli boʻlishi shart.

-*Shiraqlarım, h zirgi zamannın jaslarına p len-t len dew qıyın. S ytse de aytayın... birge g llenler, - dedi. Jaslıgımdağı «qanar hayaldın solğan g l» degeni esime t sip, «ana, j ne bir t kirarlanıız, men solğan g l emespen g y,  ?» - deyjaq bolıp edim, biraq bul g p Hajar kempirdin sońğı g pi boldı [5:175].*

Bu qatorlar orqali yozuvchi koʻzida nuqsoni bor boʻlishiga qaramasdan Hajar kampirning Gulzarni kelin qilib olishga rozilik bildirishi, tashqi goʻzallik hech narsani hal qilolmasligi, insonning bezagi uning xulqi va fel-atvori ekanligini aytmoqchi boʻladi. Shu bilan birga, Gulzarning yoshligida mehribonlik uyida yurgan paytlarida bola asrab olishga kelgan ayolning unga «soʻlgan gul» deb tanbeh bergani, hozir boʻlsa kampirning endi kurtak ochgan gulga teng koʻrib baho berishi tasvirlangan.

H.Umurov aytadi: Maʼlumki, soʻz matndan tashqarida umumiylikni bildiradi. U boshqa soʻzlar bilan aloqaga kirishib, muayyan holatdagi qahramonning qalbiga, harakatiga, qilgʻiga mos boʻlsagina — shu qalbdagi his-tuygʻularni, xarakterdagi xatti-harakatlarni ifodalay olsangina u jonlanadi, har bir kitobxon qalbiga koʻchadi, oʻshanday his-tuygʻuni boshqalarda ham uygʻotadi, tiriltiradi [9:78].

Yozuvchining mahoratining eng qaynoq birligi bu

albatta soʻz. Soʻz shunday qudratliki, insonni terang qaygʻuga botira oladi, kasalni davolay oladi. Ayrim insonlar oʻzlarini xotirjam sezish uchun kitob mutola qiladi va ichki xotirjamlikka erishadi. Baʼzi insonlar esa, aksincha, badiiy asarni mutolaa qilishdan koʻra shu asarga asoslanib tasvirga olingan badiiy filmlarni tomosh qilishni yaxshi koʻradi. Ammo, biz koʻrgan badiiy filmni aynan kitobdagidek deb aytib boʻlmaydi. Shunki filmda yozuvchining foydalanigan har bir soʻzidan qisqacha qilib aytganda, yozuvchi mahoratidan foydalanilmaydi unda faqatgina qisqa asar mazmuni ifodalanadi, xalos. Bizning dunyoqarashimiz shu badiiy asarlarni oʻqish orqali rivojlanadi va komillikka erishadi.

- *Shiragim, doktor qizim, - degeni aniq esitildi. - sennen jalgʻi gana otinishim bar, Birewdin kizin alip, birewge salsala boladi, deydi. Menin bir kizimdi oyip alip usi karadagi Gulzar degen qizga salin. Awa, men Marattin akasi usap, en bolmasa, bir adamga shadliq bagishlasam, armansizban. Bul juregi gamgun qizdin bir kulgenin, quwanaganin korgim keledi. Ol gullewi tiyis, nalshe korindi, jardem etiw gerek. Gullewidi...-dedi* [5:175].

Chinakam baxt bu insonlarga quvonch ulashish deb bayon qiladi bu qatorlar orqali mahoratli yozuvchi. Hattoki, oʻzidan yetti yosh begona kishiga koʻz nurini hadiya qilmoqchi boʻlgan kampir Gulzarining kasalxonada qilgan mehribonligini koʻrib uni oʻz qizidek koʻradi, asar boshini koʻz oldimizga keltiraylik. Maratning otasi bitta rus qiziga

gʻamxorlik qiladi va u haqida Hajarga oʻz maktubi orqali xabar bergan edi. Yuqordagi qatorlarda Hajar shu kishining qilgan yaxshiligini nazarda tutgan edi.

Mahoratli yozuvchi bu qatorlar orqali dunyoni yaxshilik qutqaradi degan keng maʼnoni kitob oʻquvchilar hotirasiga muhrlagisi keladi va albatta niyatiga erishadi.

Biz yuqordagi fikrlarimiz bilan faqatgina qoraqalpoq adabiyotida emas balki dunyo adabiyotida ham shunday asarlar borligini aytgimiz keladi. Ularni oʻqigan sari yana oʻqiging kelaveradi. Yozuvchi tamonidan yaratigan badiiy qahramonlar hayoti esa kitob oʻquvchining eng yaqin insonlaridan biriga aylanishiga shubha yoʻq. Shunday mahorat bilan yozilgan asarlar bor, ularning hech qachon tugamasligini xohlaysan kishi. Bunday asarlarda yozuvchi mahoratining aniq koʻrnatilgan yana bir tamoni, qahramon badiiy toʻqima boʻlsa unda asar uncha taʼsirli chiqmasligida. Aynan, biz soʻz yuritgan mahoratli yozuvchilar asarlaridagi qahramonlar boʻlsa hayotiy qahramonlar biz ular bilan yashaymiz.

Xulosa qiladigan boʻlsak, adabiyotdagi mahorat tushunchasi ham yuqorida aks ettirilgan fikrlarimizda namoyon boʻladi. Adabiyotshunos olimlar, adiblar ham bunday mahoratli yozuvchilar asarlarini oʻqib ularga oʻz fikrlarini bayon qilishdan toʻxtamasa, adabiyot boʻstoni hech qachon rivojlanishdan toʻxtamaydi. Zero inson bor ekan, adabiyot mangu yashaydi. Ijodkorlarning asarlari yozilari ekan, ularga fikr bildiruvchilar topiladi.

Adabiyotlar

1. Алламбергенов К. Кең дүниәға кушак ашқан жазыўшы. - Нөкис: «Қарақалпақстан», 2018.
2. Бекбергенова М. Төлепберген Қайыпбергеновтың дәретіўшилигинде инсан концепциясы типологиясы. // «Илим ҳам жәмийет» 2019 №2.
3. Бритиков Ф. А. Мастерство Михаила Шолохова. М. 1964.
4. Мәмбетов К. Әдебият теориясы. - Нөкис: «Билим», 1995.
5. Қайыпбергенов Т. Повестьлер. - Нөкис: «Қарақалпақстан», 2018.
6. Кодиров П. Ўйлар. - Бадеалар. - Тошкент; Фахур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.
7. Qoʻshjonov M. Oybek mahorati. Toshkent, Oʻzadabiynashr, 1965.
8. Stanislavskiy K. S. Dalolatnomayoming oʻzlar ustida ichlashi, T.: 1965,
9. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 2004.

РЕЗЮМЕ

Maqolada adabiyot nazariyasidagi mahorat masalasi soʻz etildi. Shuningdek, dunyo adabiyoti va qoraqalpoq adabiyotidagi buyuk siymolar asarlaridagi badiiy mahoratning oʻrganilish darajasiga toʻxtaldi. Maqoladagi misollar Oʻzbekiston va Qoraqalpogʻiston xalq yozuvchisi, Oʻzbekiston Qahramoni T.Qayipbergenovning «Uyqisiz tünler» povestidan olindi.

РЕЗЮМЕ

В статье затрагивается проблема овладения теорией литературы. Коснулся он и уровня изучения художественного мастерства в великих подобных произведениях мировой литературы и каракалпакской литературы. Примеры статьи взяты из повести «Uyqisiz tünler» народного писателя Узбекистана и Каракалпакстана, Героя Узбекистана Т. Кайыпбергенова.

SUMMARY

The article touches upon the problem of mastering the theory of literature. He also touched upon the level of study of artistic mastery in the great similar works of world literature and Karakalpak literature. Examples of the article are taken from the story " Uyqisiz tünler" by the People's Writer of Uzbekistan and Karakalpakstan, Hero of Uzbekistan T. Kaiypbergenov.

Т.АМАНЖОЛОВТЫҢ «АСАҰ-БАРАҚ» ЖЫРЫНДАҒЫ ПАТРИОТЛЫҚ ИДЕЯ

Т.А.Торткулбаева – филология илимлари бойынша философия докторы, доцент

Г.Базарбаева – ассистент оқытыўшы

Н.Ержанова – магистрант

Әжсинияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты

Таянч сўзлар: Тилеуберген Аманжолов-эпик шоир, шоир-жировлар ижодидаги тарихий дostonлар, тарихий дostonлардаги ватанпарварлик.

Ключевые слова: Тилеуберген Аманжолов-эпический поэт, исторический эпос в творчестве поэтов и поэтесс, патриотизм в исторических эпосах.

Key words: Tileubergen Amanzholov - epic poet, historical epic in the work of poets and poetesses, patriotism in historical epics.

Қазақ әдебияты тарийхын, фольклорын, тиллик өзгешеликлерин изертлеўши алымлардың нәзерине сәтти илинген Қарақалпақ аймағы қазақ жыршы, жыраў, шайырларының арасынан шайыр сыпатында дараланып шыққан сөз шеберлериниң және бири Тилеўмағамбет Аманжол улы болып табылады.

Қазақ-қарақалпақ эпикалық поэзиясының да үлкен ўәкили болды хәм сонғылығында бул жанрды өз дәретіўшилигинде турақлы дәстүр тутты. Буны оның тарийхий-эпикалық жанрда жазылған шығармалары мысалынан көриўге болады.

Тилеўмағамбеттиң тарийхий жырлары еки теманы камтыйды. Бириншиси, Жоңғар қалмақлары менен

болған гүрести сәўлелендиреди, екіншиси, яўмыт баскыншылары менен гүрескен қазақ батырларының ерлигин сыпатлаўға қурылады.

Тилеўмағамбеттиң «Асаў-Барақ», «Асқар батыр», «Ермағамбет батыр», «Марқабай менен Өтешбай батыр» жырлары алым айтқанындай «тарийхта бар белгили бир уақыялар хакқында» хәм өмирде бар адамлар хакқында шығарылған дәретпелери. Тилеўмағамбеттиң «Асаў-Барақ» жыры, туўған елимиздин еллигин, халқымыздың тутас бирлигин, адамлардың еркинлигин сыртқы жаўдан қорғаудағы батыллығы, батырлығы менен танылған халқымыздың қахарман уллары хакқындағы тарийхий жыр-дәстан